

PRAGMATIK MARKERLAR, LINGVISTIK YONDASHUV VA BOG‘LIQLIK NAZARIYASI

Safoyeva Sadokat Nasilloevna

Bukhara State University

Ingliz adabiyotshunosligi va tarjimashunoslik kafedrası o‘qituvchisi

Normurodova Farangiz

Tarjima nazariyasi va amaliyoti yo‘nalishi talabasi

***Annotatsiya:** Ushbu maqola pragmatik belgilar sohasini o‘rganib chiqib, ularning muhim jihatlari, funksiyalari va madaniy ahamiyatga ega bo‘lgan o‘ziga xos belgilarini ko‘rsatib beradi. Kirish qism pragmatik belgi tasnifini o‘z ichiga oladi va ularning muloqotdagi muhim rolini namoyon qiladi. Maqolada pragmatik markerlarning ko‘p taraflama funksiyalari tizimli ravishda yoritilib, ularning ma‘ruzachi niyatlarini yetkazishda, nutqni boshqarishda, ijtimoiy o‘zaro ta’sirlarni shakllantirishdagi ahamiyati ta’kidlab o‘tilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Diskurs, pragmatika, marker, konsepsiya, belgi, kommunikativ, funksiya.*

ПРАГМАТИЧЕСКИЕ МАРКЕРЫ, ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ ПОДХОД И ТЕОРИЯ СВЯЗНОСТИ

***Аннотация:** В данной статье рассматривается область прагматических знаков и показаны их важные аспекты, функции и отличительные черты культурного значения. Введение включает классификацию прагматических знаков и показывает их важную роль в общении. В статье систематически освещаются многогранные функции прагматических маркеров, подчеркивается их значение в передаче намерений говорящего, управлении речью, формировании социальных взаимодействий.*

***Ключевые слова:** Дискурс, прагматика, маркер, концепт, символ, коммуникатив, функция.*

PRAGMATIC MARKERS, LINGUISTIC APPROACH AND CONNECTIVITY THEORY

Annotation: This article examines the field of pragmatic signs and shows their important aspects, functions and distinctive features of cultural significance. The introduction includes a classification of pragmatic signs and shows their important role in communication. The article systematically covers the multifaceted functions of pragmatic markers, emphasizing their importance in conveying the speaker's intentions, controlling speech, and forming social interactions.

Key words: Discourse, pragmatics, marker, concept, symbol, communicative, function.

Kirish: Pragmatik markerlar suhbat davomida muloqotni shakllantirishda rol o'ynaydigan lingvistik qurilmalardir. Ular qo'shimcha ma'no yuklaydi va suhbatdoshning niyatini, munosabatini, his-tuyg'ularini yetkazishda yordam beradi. Ushbu maqola pragmatik belgi tushunchasi va ularning nutq tahlilidagi ahamiyatini tushunishga bag'ishlangan. Biz ularning vazifalarini, tasniflarini o'rganib chiqamiz va ulardan qanday foydalanilishini va muloqotga ta'sir qilishini misol qilib ko'rsatamiz

Pragmatik markerlarning tasnifi va vazifalari. Pragmatik belgilar - bu leksik elementlar, ko'pincha so'z yoki ifodalar bo'lib, ular so'zlovchining munosabati, niyati yoki gapning pragmatik kontseptsiyasini bildirishda juda muhim o'rin egallaydi. Muayyan semantik mazmunga ega bo'lgan so'zlardan farqli o'laroq, pragmatik belgilari asosan nutq yoki kommunikativ funksiyaga xizmat qiladi. Pragmatik belgilari taklif mazmunining tarkibiy qismlari emas, aksincha, pragmatik funktsiyalar uchun vosita sifatida qo'llaniladigan so'zlar, iboralar yoki gaplardir.

Ularning vazifasini quyidagicha ta'riflash mumkin:

1. Suhbatni boshlash yoki yakunlash: suhbatning boshlanishi yoki tugashini ifodalash maqsadida pragmatik belgilardan foydalaniladi. Masalan, "So, as I was saying..." yoki "Well, that's the end of that".
2. Fikr va ko'rsatkichlarni ifodalash: ular fikr bildirishga, e'tiborni yetkazishga yoki diqqatni jalb qilishga xizmat qiladi. Misollar: "I mean" va "You know".
3. Ko'rsatuvchi va mustahkamlovchi: nutqda signal berish, ta'kidlash yoki mustahkamlash uchun pragmatik belgilar qo'llanadi - "Look, let me explain it to you"
4. Muhokamani boshlash yoki davom ettirish: ular muhokamani boshlashda yoki davom ettirishda yordam beradi. "Anyway" yoki "To be honest" kabi so'zlar misol bo'la oladi.
5. Tafsilotlarni taqdim etish: pragmatik belgilar shaxslararo aloqani batafsil bayon qilishda yoki aniqlashtirishda yordam beradi. Misollar: "In other words" yoki "For instance".

6. Nutqni aniqlashtirish yoki rostgo'ylikni bildirishda: ular nutqni aniqroq aytishga yoki rostgo'ylikka urg'u berishga xizmat qiladi. Misollar: "Actually" yoki "To be specific".

7. Ochiq ifoda etish yoki ta'kidlash: pragmatik belgilar muayyan fikrlarni ifodalashga yoki ta'kidlashga yordam beradi - "You see" yoki "Actually".

Pragmatik belgilarining klassifikatsiyasi bu lingvistik elementlarni ularning vazifalari va muloqotdagi rollari asosida turkumlashdan iborat. Pragmatik belgilarini ularning shakli, vazifasi yoki kelib chiqishiga qarab tasniflashning turli usullari mavjud. Lorel J.Brintonning so'zlariga ko'ra, maqbul klassifikatsiyalardan biri:

-Diskurs belgilar: Gapni bir-biriga bog'lovchi va nutqqa nisbatan ma'ruzachining nuqtai nazarini ko'rsatuvchi pragmatik belgilar. Misollar: well, so, anyway, you know, I mean va hokazo.

-Modal zarralar. Biror gapning nutqdagi yoki yozuvdagi kuchini yoki kayfiyatini o'zgartirib, so'zlovchining munosabatini, hissiyotini yoki maqsadini ifodalovchi pragmatik belgilar. Misollar - just, really, actually, indeed, perhaps va boshqalar.

-Hedj: Bir gapning ta'sir kuchini kamaytirib, suhbatdoshning muloyimligi, hurmati yoki ishonchsizligini ko'rsatadigan pragmatik belgilar. Misollar - kind of, sort of, maybe, I think, I guess va hokazo.

-Kuchaytirgichlar: Pragmatik belgilar so'zning kuchini yoki ishonchini kuchaytiradi va ma'ruzachining bag'rikengligini, e'tiborini yoki ishonchini ko'rsatadi. Misollar - definitely, absolutely, surely, I know, I'm sure va boshqalar.

-Munosabat belgilari: Tinglovchining fikr-mulohazalari, kelishuvi yoki suhbatga aloqadorligini ko'rsatadigan pragmatik belgilar. Misollar: yeah, right, uh-huh, okay, wow, va hokazo.

-Undov so'zlar: So'zlovchining his-tuyg'ularini, reaksiyasini ifodalovchi pragmatik belgilari. Misollar: ouch, oops, yuck, wow, oh, va boshqalar.

Pragmatik belgilar tahliliga doir ba'zi misollar:

Well: Bu marker mavzuni tanishtirish, mavzuning o'zgarishini bildirish, ikkilanishni bildirish, qarshi ekanligini ko'rsatish uchun ishlatilishi mumkin. Masalan: Well, I think lesson will start now.. (mavzu bilan tanishtirish) Well, that's another story. (mavzuni o'zgartirish) Well, who knows?. (ikkilanishni bildiradi) Well, Chanel belt is trendy, but it costs an arm and leg... (qarshilikni ko'rsatish Well, Tony might be right. (fikrga tan berish)

Just: Ushbu belgi so‘rovni yumshatish, tanqidni yumshatish, fikrni ta’kidlash yoki aniqlikni ko‘rsatish uchun ishlatilishi mumkin. Masalan: Could you just turn off the radio for a moment? (talabni yumshatish) It’s just that I don’t like it.. (tanqidni yengillashtirish) I just obsessed with this necklace (fikrni ta’kidlash) It’s just 5 minutes to leave. (aniqlikni ko‘rsatish)

You know: Ushbu marker kelishuvga intilish, tushunishni tekshirish, daxldorlikni ko‘rsatish yoki pauzani to‘ldirish uchun ishlatilishi mumkin. Masalan: It’s so complicated, you know? (kelishuvga intilish) You know what I just said? (tushunganlikni tekshirish) You know, I respect your parents. (daxldorlikni ko‘rsatish) It was so realistic...you know, I couldn’t stop staring at it (pauzani to‘ldirish)

Pragmatik belgilari so‘zlashuvda keng qo‘llaniladi, lekin yozma matnlarda, ayniqsa norasmiy matnlarda ham uchratsa bo‘ladi. Ular kontekstga, ta’sirchanlikka va tilning o‘ziga xos xususiyatlariga qarab farq qilishi mumkin. Masalan, ba’zi pragmatik belgilar Britaniya ingliz tilisiga xosdir, masalan, "while" yoki "innit", boshqalari esa "like" yoki "guys" kabi Amerika ingliz tilisida ko‘proq uchraydi.

Pragmatik belgilaridan foydalanish tilning qiziqarli va muhim jihati sanaladi, chunki ular odamlarning bir-biri bilan qanday aloqada bo‘lishlarini aks ettiradi. Ular nutq yoki yozuvning tabiiy va qiziqarli bo‘lishini ta’minlashga ham hissa qo‘shadi. Biroq, biz ulardan to‘g‘ri foydalanishimiz zarur, chunki pragmatik belgilaridan haddan tashqari ko‘p foydalanish nutq yoki yozuvni noprofessional qilib qo‘yishi mumkin.

Madaniyatlararo muloqotda pragmatik belgilar. Pragmatik belgilar madaniyatlararo aloqani osonlashtirish yoki murakkablashtirishda katta ahamiyat kasb etadi, chunki ular turli madaniy qadriyatlarni, normalarni va maqsadlarni aks ettirishi mumkin. Kontekst va suhbatdoshga qarab pragmatik belgilar turli funktsiya va ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin, bu esa tushunmovchiliklarga, noto‘g‘ri muloqotga, hatto ziddiyatlarga olib keladi. Shuning uchun madaniyatlararo kommunikatorlar o‘zlari foydalanadigan markerlarning pragmatik vazifalari va ta’siridan xabardor bo‘lishlari va ulardan foydalanishning turli xil vaziyatlarini ko‘rib chiqishlari zarur. Masalan, ayrim belgilar ba’zi madaniyatlarda do‘stona yoki hamkorlik sifatida qabul qilinishi mumkin, ammo boshqalarda qo‘pol yoki intruziv deb hisoblanishi mumkin. Ba’zi belgilar bir madaniyatda qiziqish yoki rozi bo‘lishni bildirish uchun ishlatilishi mumkin, ammo boshqasida to‘qnashuv yoki intruziv deb hisoblanishi mumkin. Shunday qilib, markerlarning pragmatik funktsiyalari va ta’sirini tushunish madaniyatlararo kommunikatorlarga nutqni tinglovchilarga moslashtirish imkonini beradi. Amerika va Britaniya ingliz tillari o‘rtasidagi pragmatik markerlarning lingvistik farqiga misol "quite" so‘zini ishlatishdir. Amerikalik ingliz tilida "quite" ko‘pincha " She is quite beautiful " da bo‘lgani kabi, kuchli yoki mutlaq ma’noni

yetkazib beruvchi kuchaytiruvchi sifatida ishlaydi. Biroq, Britaniya ingliz tilida "quite" yumshoqroq sifatda ishlatiladi, bu o'rtacha yoki biroz degan ma'noni anglatadi. "She is quite beautiful" gapi "she is rather beautiful" ma'nosini anglatadi. Shu sababli, amerikalik ma'ruzachi bilmasdan britaniyalik odamga kuchliroq maqtov bildirishi mumkin, britaniyalik ma'ruzachi esa amerikalik tinglovchi bilan "quite" foydalanishda ularning maqtovini noto'g'ri tushunishi mumkin. Bu esa pragmatik belgilaridagi madaniy farqlar muloqotning talqiniga qanday ta'sir ko'rsatishi mumkinligini yaqqol ko'rsatadi.

Xulosa. Pragmatik markerlarni tadqiq qilish samarali muloqotni shakllantirishda ularning muhim rolini ochib beradi. Pragmatik belgilar, lingvistik qurilmalar sifatida nutqdagi ijtimoiy dinamika, niyat va hissiy nuanslarni ifodalashi orqali til imkoniyatlariga kuchli ta'sir o'tkazadi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Brinton, L. The Evolution of Pragmatic Markers in English: Pathways of Change. – Cambridge University Press, 2017. – 332 p.
2. Beeching, K. Pragmatic Markers in British English. Meaning in Social Interaction. – Cambridge: Cambridge University Press, 2016. – 255 p
3. Aijmer, K. Understanding Pragmatic Markers: A Variational Pragmatic Approach. – Edinburgh: Edinburgh Univ. Press, 2013. – 192 p.
4. Nasilloeyeva, S. S. The Connotative meanings of noun and adjective lexemes in Uzbek and English languages Qayumova Nigora Muxtor kizi. Scientific reports of Bukhara State University, 79.
5. Sadokat Safoyeva, Text-reality integration and sociological analysis of literary text , центр научных публикаций (buxdu.uz): Том 26 № 26 (2022): Статьи и тезисы (buxdu.uz)
6. Sadokat Safoyeva, Linguistics features of the publicistic style , центр научных публикаций (buxdu.uz): Том 5 № 5 (2021): Maqola va tezislari (buxdu.uz)